

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING
MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINI
BOSHQARISH**

Sayidova Rahima Rustamovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarning matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'lim jarayonini boshqarish haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktab, matematika, tushuncha, natija, dars, o'quvchi, samara, xususiyat, ta'lim.*

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan asosiy fanlardan biri – matematika fanidir. Bu fanning amaliy ahamiyati shu qadar katta, fanlararo aloqasi shunchalik mustahkamki, hech bir hayotiy masalani matematika elementlarisiz, mantiqiy mushohadalarsiz hal etib bo'lmaydi.

Shu bois ham bu fan inson ongi, tafakkuri rivojlana boshlagan vaqtdan boshlab, toki ta'lim tizimining yuqori, oliy ta'lim bosqichlarigacha o'rgatiladi. Biroq jiddiy va abstrakt fan hisoblangan matematika fanining tushunchalarini o'rgatish jarayoni doim ham oson kechavermaydi.

Matematika fani fundamental fan bo'lgani bois bu fanni o'quvchilarga ta'lim tizimining ma'lum bir bosqichida samarali o'qitish uni avvalgi bosqichlarda qanday o'rgatilganligiga juda ham bog'liq bo'ladi.

Natijada, matematika fanini bo'lg'usi mutaxassislariga, o'quvchilarga samarali o'rgatish, eng avvalo, bu fan elementlarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyalanuvchilariga va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilariga qanday o'rgatilganligiga bog'liq bo'ladi.

Maktabgacha yosh davrining xususiyati shundan iboratki, aynan shu davrda turli xil ijtimoiy bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallashda zamin bo'lib xizmat qiluvchi umumiy rivojlanish ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim– bolaning individual, yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini, uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi – maktabga o'z vaqtida va to'laqonli o'tishini ta'minlovchi har tomonlama, maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir.

Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari ishni to'g'ri rejalashtirish va tashkil qilishsiz hal bo'lmaydi.

Bu bo'limda quyidagi masalalar ochib beriladi: - bolalar bog'chasining har xil yosh guruhlarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishga oid ishlarni tashkil qilish;

- kam komplektli bolalar bog'chasida mashg'ulotlarni tashkil qilish va rejalashtirish;

- matematika mashg'ulotlaridan qilinadigan didaktik talablar;
- elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish usullari;
- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirishda oila bilan ishlashni tashkil etish.

Qo'llanma bu bo'limining asosiy maqsadi – bolalar bog'chasida ish tashkil etish va rejalashtirish, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga matematika o'qitishning asosiy tashkiliy masalalari bilan tanishtirishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ta'lim tarbiya tizimida alohida o'ringa ega bo'lib, u bolani sihatsalomatlikka, to'g'ri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha ta'lim tizimida beriladigan bilimlarni chuqur o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'limda jismoniy mashqlarning asosiy mazmuni badan tarbiya, harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, sport mashqlari, oddiy turizmdir..

Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, o'yinlarni bajaranda 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chamalash, doira, aylana, to'g'ri chiziq, to'g'ri turish, uchburchak, to'rtburchak, kabi so'zlarni eshitadi va so'zlaydi, bu so'zlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlatiladi.

Demak, maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida o'rgatiladigan elementar matematika tasavvurlarini shakllantirish bo'yicha na'munaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga o'rgatish jarayonini bilim va ko'nikmalarini samarali bo'lishini, bolalar ongida yanada mustahkam bo'lishini ta'minlashda, o'yinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni: son, sanoq, to'plam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik bo'lib, maktabgacha ta'limda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha umum metodik nazariy asoslari namunaviy dasturlari yaratilgan bo'lib, bu masala bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda ba'zi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, "teng", "katta", "kichik", "butun va bo'lak" kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, o'lchov kattaliklari bilan son o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlay bilish ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga ko'tarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni ko'z bilan hamda ichida sanashga o'rgatib boriladi. Ularning ko'z bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir. Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi.

Matematik masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi, matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi.

Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada ota-ona bo'lsa, maktabgacha ta'limda albatta tarbiyachi-pedagog bo'ladi. Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakllantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar, individual yondashish, mustaqil shig'ullanishga o'rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.B. Danilova . Matematicheskaya podgotovka detey v doshkolnix uchrejdeniyax. M. 1987
2. Sodiqova SH. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. -T.: TDPU, 2017 y.
3. N.U. Bekboeva, U.S. Aliyeva Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish bo'yicha ta'lim mazmuni. "Maktabgacha ta'lim " jurnali №12, Toshkent 2000 y.
4. Sodiqova Sh.A. "Maktabgacha pedagogika". <> T.: 2013
5. N.U. Bekboeva, Z.I. Ibrohimova, H.I. Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.